

## ILMIY-METODIK ADABIYOTLARDA TIBBIYOT TALABALARIGA CHET TILINI O'QITISHNING MASALALARINING YORITILISHI

**Dastenova Firuza Andreevna**

*Tayanch doktorant, Qoraqolpoq Davlat  
Universiteti*

[firuzadastenova@gmail.com](mailto:firuzadastenova@gmail.com)

**DOI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14270182>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining chet tilidagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning o'ziga hos xususiyatlari va muommalari ko'rib chiqiladi. Maqolada yana da tibbiyot talabalariga ingliz tilini samarali o'rgatish jarayonlari haqida ma'lumotlar beriladi.*

***Kalit so'zlar:** tibbiyot talabalari, kasbiy kompetensiya, kommunikativ qobiliyat, ingliz tili, motivatsiya, texnologiya, oquv materiallari, mashg'ulotlar.*

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida chet tilini o'qitish bu kelajakdagi shifokorlarning har tomonlama rivojlanishini nazarda tutadi va bu mavzuda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Oliy ma'lumotli mutaxassislar orasidagi raqobatdoshlik ilimning rivojida katta rol o'ynaydi. Bugungi kunda ham o'z mutaxassisligi bo'yicha ham chet tili bo'yicha yo'qori bilimga ega har qanday kasb egasiga ehtiyoj kundan kunga ortib boriyabdi. Ayniqsa, tibbiyot hodimlarining ingliz tili bilimi ularning rivolanishiga kalitdir. Bu borada, ingliz tili fani o'qituvchilari tibbiyot talabalarining chet tilidagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga urg'u beradigan ta'lim berishi kerak. Ingliz tilida kasbiy kompetensiyani shakllantirish kelajakda tibbiyot hodimlariga chet el tibbiyot hodimlariga chet el adabiyotlari bilan tanishish, tajriyabali chet el shifokorlari bilan tajriba almashishiga va tibbiyot sohasidagi bilimlarini boyitishga yordam beradi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ingliz tili darslarida professional yondashuv metodologiyasi yangi bosqichga ko'tarilishi kerak. Talabalarning amaliy tibbiy habardorligi, ularning ko'nikma va bilimlarning uyg'unligi va professional o'quv muhitini yaratish-bularning barchasi ingliz tilini o'rganish jarayoniga integratsiya qilishi kerak. Shuning uchun tibbiyotda ingliz tilini o'rgatish o'ziga hos amaliy xususiyatga ega va asosan kasbiy amaliyotda kognitiv faoliyatga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan. [1;119-132]

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining chet tillarini o'rganish jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirish va o'qitish sifatini baholash uchun quyidagi sharoitlarni amalga oshirish lozim:

-kommunikativ-ta'limiy muhitni yuzaga keltirish;

-ta'lim jarayonida talabalar motivatsiyasini kuchaytirish;

-talabalarining ijodiy faoligini rivojlantirish;

-o'quv mashg'ulotlarida zamonaviy interfaol metodlar, texnologiyalarning doimiy qo'llanilishi;

-oquv mashg'ulolarining didaktik vositalar majmuasi bilan jihozlangan o'quv honalarida olib borilishi. [2:78]

Tayyorlangan gapirish malakalarini oshirishga moljallangan mashqlar:

a) tayanch so'z, gapirish rejasi, sarlavha kabilarga suyanib, fikrni o'zgartirib va to'ldirib bayon etish.

b) axborot manbalar (rasm, kino va diafilm, matn kabilar) dan foydalanish va fikr izoh etish.

c) o'rganilgan mavzuga asoslanib fikr aytish.

Tayyorlanmagan nutqni o'rganish mashqlari:

a) ona tilidagi hikoya, rasm, ovozsiz film kabi axborot asoslariga tayyorlanib gapirish.

b) oldin ko'rgan yoki o'qigan, o'ylagan, xayolidan o'tkazgan fikr mulohozalardan tarkib topgan hayot tajribasidan kelib chiqib gapirish. [4:249]

Tibbiyot talabalarining chet tilidagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga yo'natilgan mashqlar esa, bizning ishimizda, asosan ularning mutahassisligi bo'yicha mavzularga ingliz tilida gapirish, yozish, tinglash va oqish mashqlaridan iborat.

Turli darajadagi kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat loyiq mutaxassisni shakllantirishga, balki talaba shaxsni kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash motivatsiyasiga, uning mehnat bozorining o'zgaruvchan ijtimoiy iqtisodiy sharoitlariga moslashishiga yordam beradi. O'quv jarayonida chet tili darslarining faol va interaktiv shakllaridan (munozaralar, ishbilarmonlik o'yinlari, kompyuter texnologiyalaridan goydalanishi va h.k.) kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishi mumkin. [5:125-129]

Psixologlarning ta'biricha, materialni, nutqni idrok qilish, tushinish bular hotirada puxta saqlashning garovidir.

Chet tillarini o'rgatishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv zamonaviy talabani ta'lim tizimining passiv elementidan ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishiga yordam beradi [3:282], bunda u insoniyat tomonidan to'plangan tajribani anglab, dunyo qarashini shakllantirishni o'rganadi. An'anaviy axborot manbalaridan va yangi texnologiyalardan o'qituvchi esa yordamchi va maslahatchi vazifasini

bajaradi. Chet tilini o'qitish muommasi fanning o'ziga hos hususiyatlaridan hisoblanadi. [6: 19]

Bizning tadqiqotimizda tibbiyot talabalarinig chet tilidagi kasbiy lompetensiyasini oshirishga tibbiy mavzularda dialoglar tuzish, tibbiy vaziyatlar bilan ishlash, tibbiy atamalarni o'rganish, virtual bemorlar bilan suhbat va audio va video materiallardan foydalanish kabi vaziofalar katta rol o'ynashi ko'rib chiqiladi.

Hozirgi paytda chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'rgatish metodikasida kommunikativ yo'nalish tomoyili yetakchidir. Uning 5 ta tamoyili bor. Ularning biri situativlik, nutqning intuitivlik bo'lishidir.

Situativlik, nutqning intuitivlik bo'lishligi:

- 1) Grammatika, leksikani o'rgatishga;
- 2) Mavzuni o'zlashtirishga;
- 3) Qiyinchiliklarni oson echishga;
- 4) Malaka ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga;
- 5) Erkin fikrlashga;
- 6) Turli vaziyatda fikrlash, gapirish, so'zlash mazmunini kengaytirishga;
- 7) Muloqotning, gapirishning qiziqarli bo'lishiga yordami kattadir. [7: 45]

Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining kommunikativ qobiliyatini oshirish uchun interaktiv animatsiyalar, har bir mavzu bo'yicha so'z boyligi va grammatika mashqlari, tibbiy matnlarni o'qish va tushinish mashqlari mashqlari ahamiyati kattadir.

Asosiy kompetensiyalarni shakllantirish ijtimoiy-siyosiy kommunikativ, axborot, ijtimoiy madaniy va h.k. ular birgalikta zamonaviy ko'p madaniyatli olam talablariga muvofiq shaxsiy tarbiyaning asosiy maqsadiga aylanadi [9:1016]. Ushbu kompetensiyalar orasida chet tilining kommunikativ kompetensiyasini barcha fanlar uchun tizimli va sosiy hisoblanadi, chunki u o'z rivojlanishida boshqa barcha kompetensiyalarni shakllantirishni cheklangan darajada integratsiya qiladi. U nafaqat maqsad, balki chet tilinim o'qitish jarayonini samarali shakllantirish vositasidir. [ 8: 21]

Bizning ishimizda tibbiyot talabalarining chet tili kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga bag'ishlangan ingliz tili darslari materiallari talabalarining ingliz tili bilish darajasiga moslashtirilib tanlanishi kerak. Ushbu ta'rifga asoslanib, talabalar ehtiyojini va qiziqishlarini hisobga olib ingliz tilini o'rgatishni natijali bo'ladi deb yoritamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.D.Buranova. Tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini o'qitishda kasbiy yondashuv metodologiyasi 128. International scientific methodological electronic journal. Foreign languages in Uzbekistan. 2023 No 1 (48) ISSN: 2181-8215 (online)
2. Babadjanova U.B. Tibbiyot OTM talabalariga ingliz tilini o'qitish muommalari. The journal of social sciences and researches. Volume 1. Issue 4 2023 78
3. Dauletova Dinara Baxtiyarovna, & Xodjaniyazova Umida Kulmagambetovna. (2024). The Methodology for Developing Written Competence in English among 5th Grade Students. Journal of Computational Analysis and Applications (JoCAAA), 33(06), 279–285. Retrieved from <https://www.eudoxuspress.com/index.php/pub/article/view/753>
4. J.Jalolov. 2012. Toshkent. Chet tilini o'qitish metodikasi.
5. Ефременко Т.Б. Формирование коммуникативной компетентности по предмету Иностранный язык для студентов медицинских вузов. Международный журнал. Экспериментальное образование. 2014 #10
6. Баева Т.А. Методика формирования профессиональной иноязычной компетенций студентов медицинских вузов в условиях информационной среды. Автореферат диссертаций. Нижний Новгород. 2013
7. U.Hoshimov, I.Yoqubov 2003. Ingliz tili o'qitish metodikasi.
8. Аитов В.Факелович. Проблемно проектный подход к формированию иноязычной профессиональной компетентности студентов. (на примере неязыковых педагогических вузов) Санкт Петербург 2007.
9. Ходжаниязова У. К., Нуратдинова Н. Б. ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ПРОВЕДЕНИЮ ПРЕЗЕНТАЦИЙ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ //QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1015-1017.